



## BO‘LG‘USI O‘QITUVCHILARDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TADBIQ ETISH YO‘LLARI

*Nigmanova U.B.*

*pedagogika fanlari buyicha falsafa doktori (PhD), v.b.professor  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiti*

**Tayanch so‘zlar:** talaba, kompetentlik, islohot, milliy o‘zlikni anglash, tashabbuskorlik, ijtimoiy – professionallik, barkamollik, ma’naviy-ahloqiy fazilatlar, tarixiylik, mantiqiylik, kuzatish, qiyosiy taqqoslash.

**Ключевые слова:** студент, компетентность, реформа, осознание национальной идентичности, инициатива, социально-профессионализм, совершенство, духовно-нравственные качества, историчность, разумность, наблюдательность, сравнительное сравнение.

**Key words:** student, competence, reform, awareness of national identity, initiative, social and professionalism, perfection, spiritual and moral qualities, historicity, reasonableness, observation, comparative comparison.

### **Резюме:**

Mazkur maqolada o‘quv-tarbiyaviy mashg‘ulot jarayonini innovasion pedagogik tenologiyalardan foydalanib olib borishda avvalo, bo‘lajak o‘qituvchining mustaqil egallangan bilim, ko‘nikma va malakalari, ma’naviy-tarbiyaviy ahloqiy jihatdan keng ma’lumotlarni tahlil qilish qobiliyati, pedagogik tafakkur va pedagogik odob, pedagogik texnika, milliy o‘zligini anglaganligi, ma’naviy barkamolligi, tashkilotchilik, matonat, pedagogik layoqatga ega bo‘lish, talabchanlik, qat‘iy intizom kabi sifatlarni tarkib toptirishning pedagogik ta’sir vositalari orqali yoritilgan.

### **Резюме:**

В данной статье при проведении учебно-тренировочного процесса с использованием инновационных педагогических технологий в первую очередь учитываются самостоятельно приобретаемые будущим учителем знания, умения и навыки, умение анализировать обширную информацию с духовно-этической точки зрения, педагогическое мышление и педагогические манеры. , педагогическая техника, осознание национальной идентичности, нравственное совершенство, организованность, настойчивость, наличие педагогических способностей, требовательность, строгость. Такие качества, как дисциплинированность, выдвигаются на первый план средствами педагогического воздействия.

### **Summary:**

In this article, when conducting the educational and training process using innovative pedagogical technologies, the knowledge, skills and abilities independently acquired by the future teacher, the ability to analyze extensive information from a spiritual and ethical point of view, pedagogical thinking and pedagogical manners, pedagogical technique, awareness of national identity, moral perfection, organization, persistence, the presence of pedagogical abilities, exactingness, rigor are



primarily taken into account. Such qualities as discipline are brought to the forefront by means of pedagogical influence.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim va fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh negizida yosh-avlodni ya’ni bo‘lajak kadrlarni kompetentli qilib tarbiyalash eng birinchi masala sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatlari hamda xalqiga qilgan Murojaatnomasida yosh-avlodning zamonaviy kasb egasi va kompetentli shaxs sifatida tarbiyalanishi masalasiga to‘xtalib: shunday ta’kidlagan edi, “har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta’minlaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko‘lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz” deb ilgari surgan tashabbus va g‘oyalarining asosida kompetentli shaxs maslasi muhim hisoblanadi.

Jamiyat hayoti sohalarining keskin globallashuvi jamiyatda-ijtimoiy hayotning turli jarayonlarida keskin namoyon bo‘lishi bilan xalq, millat hayotini, uning qadriyatlarini, mentalitetini chetlab o‘tgani yo‘q. Shunday ekan millat ma’naviy-ahloqiy, tarbiyaviy-ijtimoiy hodisa sifatida qanday shakllandi, qay darajada rivojlanib keldi, uning yuksalib kelishini ta’min etgan omillar globallashuv sharoitida qay darajada ahamiyat kasb etishi, bu omillardan zamonaviy tarbiyaviy ishlarda qay darajada foydalanish kabi masalalar alohida ahamiyat kasb etgan holda o‘z dolzarbligi chiqmoqda. Demak, ijtimoiy-falsafiy, ilmiy adabiyotlarda ular qaysi nuqtai nazardan yoritilganidan qat’iy nazar bu boradagi tadqiqotlarni tahlil qilmasdan turib, millat hayotining buguni xususida, uning barhayotligini ta’min etuvchi omillar, vazifalar haqida fikr yuritish qiyin.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin jamiyat ma’naviy hayotini sog‘lomlashtirish va rivojlantirish, inson omiliga katta e’tibor berish asosiy vazifa sifatida kun tartibiga qo‘yildi. Jumaladan, bo‘lajak o‘qituvchilarda milliy o‘zlikni anglash kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmini tadqiqot jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali qurish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, o‘quv-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash talabalarda mashg‘ulot jaryonida xosil bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va amaliy faoliyat tajribasi kompetensiyaning uyg‘unlashuvi bilan bog‘liq holda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Biz tadqiqot ishimizda bo‘lajak o‘qituvchilarda milliy o‘zlikni anglash kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmi ta’lim-tarbiya jarayonida talabalarining ma’naviy-ahloqiy tarbiyalanganligi, milliy ongi, g‘ururi, iftixori, millat taqdiri uchun



qayg'urishi orqali muammoning yechimi to'g'risida o'z mustaqil qarashlari bilan javob bera olish psixologik sifatлари, mashg'ulot olib borish jarayonida interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalarning to'g'ri tanlangani, talabalarda kompetensiyaviy motiv va motivasiyaning mavjudligi bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib boradi.

Bo'lajak o'qituvchilarda milliy o'zlikni anglash kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini ta'limda pedagogik texnologiyalar asosida qurish masalasiga alohida to'xtalar ekanmiz. Avvalo, uning rivojlanish jarayoni masalasiga respublikami hamda xorij olimlari tomonidan bildirilgan ilmiy mulohazalarga alohida to'xtalib o'tishimiz lozim. Demak, «Pedagogik texnologiya» atamasi olimlar tomonidan turlicha talqin etib kelingan: O'.Q.Tolipov, D.Ro'zieva, G.Selevkolar tomonidan ta'lim jarayonida qo'llashning kommunikasiya jarayoni yoki o'qitishni yaxshilash uchun bixevioristik ta'limiy metodlar va tizimli tahlilni qo'llashdan iborat bo'lgan o'quv vazifasini bajarish usuli deb takidlashga asos bo'ladji deb ifodalangan.

Jumaldadan, xorij olimlaridan, O.Grebenyuk o'z ilmiy mulohazalarida quydagicha ifodalagan: «pedagogik texnologiya – bu qoidalar va ularga muvofiq bo'lgan o'quvchining rivojlanishi, ta'limi va tarbiyasiga ta'sir etishning pedagogik usullari majmui» deb takidlashgan».

G.Selevko pedagogik texnologiya masalasida o'z fikralarini ifodalalar ekan: «pedagogik texnologiya – bu ilmiy asosda qurilgan, vaqt va fazoda dasturlashtirilgan va belgilangan natijalarga olib keluvchi pedagogik jarayonning barcha komponentlarining ishlash tizimidir» deya takidlaydi». shuningdek, ushbu atamaning mazmun-mohiyatini etimologik tahligi to'talib o'tar ekan: pedagogik texnologiya bu, ta'lim jarayonida qo'yilgan maqsadlarga mos ravishda bilimlar, ko'nikma va munosabatlarni loyihalash, shakllantirish va nazorat qilish operatsiyalari tizimidir» deb takidlaydi.

Respublikamiz pedagog olimlaridan N.X.Avliyaqulov, pedagogik texnologiya masalasida: «pedagogik texnologiya – bu o'z oldiga ta'lim shakllarini maqbullashtirish vazifasini qo'yishni, texnika va inson resurslarini va ularning o'zaro ta'siri aloqasini hisobga olgan holda butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli yondashuvidir» deb ta'kidlaydi. Olimlar tomonidan pedagogik texnologiyaning maqsadi va bosh vazifasiga ham alohida to'xtalib o'tgan.

O'.Q.Tolipov, D.I.Ro'zievalar ta'lim tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari to'g'risida o'z tadqiqotlarida alohida urg'u berib o'tgan bo'lib, texnologik yondashuv orqali ta'limiy,



pedagogik, ijtimoiy faoliyat qirralarini ochish masalasida quyida keltiriladigan imkoniyatlarga to'xtalغان:

- pedagogik samarali boshqarish;
- mavjud amaliy tajribani ilmiy asosda tahlil etish va qo'llash;
- ta'limiy va ijtimoiy - tarbiyaviy muammolarni yaxlit hal etish;
- shaxs rivojlanishi uchun qulay sharoitni ta'minlash;
- shaxsga nisbatan bo'ladigan salbiy ta'sirlarni kamaytirish;
- resurslardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish;
- kadrlar tayyorlash milliy modeliga muvofiq samarador texnologiyalarni yaratish;
- ijtimoiy pedagogik muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish;
- natijalarni yuqori aniqlikda hal etish kabi, vaziflariga alohida to'xtalib o'tgan.

Pedagogik ta'lim-tarbiyada jarayonning muhim xususiyat-laridan yana biri bo'lajak o'qituvchilar egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalar hamda nazariy bilim va tushunchalar, qoidalar tizimi kundalik xizmat faoliyatining asosini tashkil etadi. Ular Ma'naviyatshunoslik fani orqali ta'lim - tarbiya jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini ma'naviy – tarbiyaviy, ma'rifiy kechalar, seminar – treninglar, ijtimoiy loyihaviy tadbirlarda qo'llaydilar. Ma'naviyatshunoslik fanining ta'limda sifat – samaradorligini oshirishda o'qitishda pedagogik texnologiyadan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim texnologiyasi, avvalo ta'lim-tarbiya jarayonining yaxlit mazmunini hamda oldindan loyihalashtirish orqali yagona tizim asosida, bosqichma-bosqich, amaliyotga joriy qilish, aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'lim metodlari, usullari va ta'lim vositalarini tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali foydalanish va ta'lim jarayonini yuqori darajada tashkil etish imkonini beradi. Pedagogik texnologiyaning maqsadi – “ommaviy ta'lim sharoitida ta'lim jarayonning zaruriy samaradorligini ta'minlash va talabalar tomonidan o'qishning ko'zlangan natijalariga erishish kafolatidan iboratdir”. Pedagogik texnologiyaning bosh vazifasi – “ommaviy ta'lim sharoitida “oddiy” pedagoglarga o'qitishning yetarli samarasiga erishishni ta'minlovchi o'quv jarayonini yaratish hisoblanadi” debodalaganlar.

O'quv-tarbiyaviy mashg'ulot jarayonini innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanib olib borishda avvalo, bo'lajak o'qituvchining mustaqil egallangan bilim, ko'nikma va malakalari, ma'naviy-tarbiyaviy ahloqiy jihatdan keng ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyati, pedagogik tafakkur va pedagogik odob, pedagogik texnika, milliy o'zligini anglaganligi, ma'naviy barkamolligi, tashkilotchilik, matonat, pedagogik layoqatga ega



bo‘lish, talabchanlik, qat’iy intizom kabi sifatlarni tarkib toptirish eng asosiy sifatlarni muhim hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quv mashg‘ulotlarini o‘zlashtirishda psixologik tayyorgarlik muhim o‘rin tutadi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // PF-5847-son .
2. Халқ сўзи. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий Мажлисга Мурожаатномаси” 2020 й. 25 январь №-19 сон
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёвнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси
4. Толипов Ў., Рўзиева Д. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат: “Инновацие”.:Т-2019 й, 16 бет
5. Селевко Г. Педагогические технологии на основе дидактического и методического усовершенствования.-М.: 2005 г. 224-288 с
6. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti. Pedagogik atamalar lug‘ati. T.: 2008 y. b – 28-29.
7. Гребенюк О. Общие основы педагогики .: учеб. для студ. высш. учеб. заведений // . - М.: ВЛАДОС -ПРЕСС, 2003.-160
8. Авлиякулов Н.Х., Н.Н.Мусаева Педагогик технология.: “Тафаккур Бўстони”.: 2012 й. 17 -19 б.
9. Холиқов Э., Худойкулов Х.Ж. ва бошқалар. Таълим жараёнида янги педагогик технологиялардан фойдаланиш. Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: ТДАИ, 1999. – 98 б